

**ТЕХНИК ХИЗМАТ КҮРСАТИШ ВА ТАЪМИРЛАШ ТЕХНИКАЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ  
ИСТИҚБОЛЛЛАРИ**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10019312>

**Кузибаев Одилжон Тажибаевич**

подполковник Тошкент ш.

Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари Академияси Техник Таъминот Кафедраси  
Камта Ўқитувчиси

**Кузибаев Одилжон Тажибаевич**

подполковник г. Ташкент

Старший Преподаватель Кафедры Технического Обеспечения академии Вооруженных  
Сил Республики Узбекистан

**Kuzibayev Odiljon Tazhibayevich**

lieutenant colonel Tashkent city

*Senior Lecturer Of The Department Of Technical Support Of The Academy Of The Armed  
Forces Of The Republic Of Uzbekistan*

**Аннотация:** В современных условиях ведения боевых действий при значительном выходе из строя вооружения и техники важное значение в выполнении боевых задач имеет своевременное восстановление вооружения и техники. Рассмотрены перспективные образцы подвижных средств технического обслуживания, ремонта и эвакуации, предназначенные для выполнения задач технического обеспечения боевых действий.

**Ключевые слова:** подвижные средства обслуживания, ремонт и эвакуация, техническое обслуживание, ремонт, бронетанковая и автомобильная техника.

**Аннотация:** Жанговар ҳаракатларни олиб боришнинг замонавий шароитларида, жанг майдонида қурол-аслаҳа ва техникаларни кўп миқдорда сафдан чиқишини инобатга олган ҳолда уларни ўз вақтида тиклаш муҳим ахамиятга эга. Техник таъминотнинг вазифаларини бажариш учун мўлжалланган ҳаракатланувчи техник хизмат курсатиш, таъмирлаш ва эвакуация қилиш воситалари кўриб чиқилган.

**Калитли сўзлар:** ҳаракатланувчи техник хизмат курсатиш воситалари, таъмирлаш, эвакуация, техник хизмат курсатиш, зирхли танк ва автомобил техникаларини таъмирлаш.

**Annotation:** In modern conditions of warfare, with a significant failure of weapons and equipment, timely restoration of weapons and equipment is important in the performance of combat tasks. Promising samples of mobile means of maintenance, repair and evacuation, designed to perform the tasks of technical support of combat operations, are considered.

**Keywords:** mobile means of maintenance, repair and evacuation, maintenance, repair, armored and automotive equipment.

**Texnik ta'minot** - Bu tinchlik va jangovar harakatlarda ta'minot turlarining asosiy qismi bo'lib, u majmuaviy tadbir xisoblanib, qo'shirlarni qurol-asлаha va harbiy texnikalar, raketalar, o'q-dorilar va harbiy-texnik mulklar bilan ta'minlash, ularni texnik soz holatda saqlash, jangovar qo'llashga shay holatga keltirish, shikastlangan qurol-asлаha va harbiy texnikalarni tiklab safga qaytarish; shaxsiy tarkibni texnik va maxsus tayyorgarligiini o'z ichiga oladi.

Hozirda dunyo miqyosida sodir bo'layotgan qurolli majoralar, to'qnashuvlar va urushlardagi jangovar harakatlarni o'rganishlar natijalariga nazar tashlaydigan bo'lsak, oxirgi 20 yildagi davlatlar orasidagi qurolli majorolar va jangovar to'qnashuvlarni (Checheniston - Rossiya Federatsiyasi, AQSh - Iraq va Ukraina - Rossiya Federatsiyasi) o'rganishlar natijasida jang maydonida qurol-asлаha va harbiy texnikalar ko'p miqdorda talofat ko'rib, safdan chiqayotganligini ko'rshimiz mumkin.

Hozirgi zamon taktik harakatlarda nosoz (ishdan chiqqan) qurol-asлаha va harbiy texnikalarni safga qaytarishda katta miqdordagi tiklash ishlarini bajarishlarga to'g'ri kelmoqda. Shu munosabat bilan ushbu ishlarni bajarishga vaqt cheklanganligi sababli, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha jo'shqinlikni va tezlikni talab etadi.

Qurol-asлаha va harbiy texnikalarni safdan chiqqishi natijasida nosoz va talofat ko'rgan texnikalarni surati o'smib bormoqda, lekin ularni tiklab safga qo'yish uchun vaqt yetarli bo'lmayapti.

Jang maydonida safdan chiqqan texnikalarni qisqa muddat ichida tiklab ishchi holatiga keltirib safga qaytarish bo'yicha qo'shirlardagi va tezkor bo'g'indagi ta'mirlash-tiklash organlarini tezkork va ishlab chiqarishdagi imkoniyatlarini oshirish talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan hozirgi zamon taktik harakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, barcha jang maydonlarida dushman tomonidan yuqori aniqlikdagi qurollar qo'llanilib jangovar texnikalarning tartibsiz safdan chiqishi sodir bo'lmoxda, buning oqibatida texnikalarni ta'mirlab safga qo'yish suratini oshirish uchun kuch va vositalar hamda vaqt yetmasligini ko'rshimiz mumkin.

Bunday vaqtarda talofat ko'rgan mashinalarning joylashgan rayonni aniqlash, izlab topish va evakuatsiya qilish tadbirlarini bajarish uchun katta miqdorda vaqt va qiyinchiliklar kelib chiqmoqda.

Jang maylonida texnikalarga texnik yordam ko'rsatish imkoni bo'lmasa, texnikalarni safdan chiqqan joyida joriy ta'mir o'tkazish, yaqin pana joyga yoki ta'mirlash joyigacha evakuatsiya qilish eng maqul usul xisoblanadi. Bu kab vazifalarini bajarish uchun qism va bo'linmalarni ko'chma texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash vositalari bilan ta'minlash talab etiladi.

Xozirgi vaqtida O'zbekiston Respublikasi Qurlli Kuchlarida qurol-asлаha va harbiy texnikalar asosan sobiq sovet (Rossiya Federatsiyasi) davlatida ishlab chiqarilganligini inobatga olgan holda texnik ta'minot vazifalarini bajarish uchun hozirgi zamon talablariga mos texnikalar namunalari bilan ta'minlash asosiy diqqat e'tiborimiz bo'lganligi sababli Rossiya Federatsiyasi bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishga qaratilgan.

Hozirgi zamon talabiga javob beradigan yagona namunadagi harakatdagi ta'mirlash-evakuatsiya vositasidan bir bu texnik yordam mashinasi MTP-A2 xisoblanadi (1-rasim)

Texnik yordam mashinasi MTP-A2 - UAZ, GAZ, ZIL, Ural, MAZ, KamAZ barcha rusumdagи avtomobillardagi nosozliklarni bartaraf etishda,



yoqilg'i, moy va maxsus suyuqliklarni to'ldirish, botib qolgan va ag'darigan texnikalarni chiqarish uchun haydovchilarga ko'maklashadigan, shuningdek og'irligi 10 tonnagacha bo'lgan nosoz texnikalarni transportirovka qilish: yurish qismi va rul boshqaruvi qurilmasi nosoz bo'lganda yarim ortilgan holatda hamda qattiq shatak bilan tortib tashish uchun foydalilaniladigan mashina xisobla **1-rasim.** Texnik yordam mashinasi MTP-A2

Undan tashqari ushbu mashina nosoz (talofat ko'rgan) turli namunadagi qurol-asлаha va harbiy texnikalarga texnik yordam ko'rsatish bilan cheklanib kolmasdan, evakuatsiya qilish bo'yicha barcha asosiy ishlarni bajara oladi.

Taktik harakatlar vaqtida nosoz texnikalarni katta qismini dala sharoitida tiklash uchun qo'shinlar bo'g'inidagi tiklash organlarining harakatdagi texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ustaxonasi yordamida amalga oshiriladi.



Hozirgi zamон talablariga javob beradigan yagona namunadagi harakatdagi texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash vositasidan biri bu texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ustaxonasi MTO-UB1(2) xisoblanadi (2-,3-,4-5- rasimlar)

MTO-UB1(2) – motoo'qchi va tankchilar batalonlaridagi mavjud qurol-asлаha va

harbiy texnikalar ya'niy T-72, T-80, BMP-1, BMP-2, BMP-3, BTR-70, BTR-80, MT-LB va Ural-4320 ga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarni bajarish uchun mo'ljallangan.

Uning asosiy kamchiliklaridan biri nosoz (talofat ko'rgan) texnikalarni evakuatsiya qilish imkoniyati yo'qligida.

(5-rasm) REM-KL - g'ildirakli ta'mirlash-evakuatsiya mashinasi rossianing sifatli ishlab chiqaruvchi kompaniyasi tomonidan qo'llashni taklif qilmoqda.



**4-rasm.** REM-KL - g'ildirakli ta'mirlash-evakuatsiya mashinasi

REM-KL mashinaga texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mir o'tkazishda, shuningdek 16 tonnagacha bo'lgan og'irlikdagi mashinani evakuatsiya qilish ishlarni bajarishda haydovchilarga yordam berish uchun mo'ljallangan.

Mashinaning funksional imkoniyatlari: haydovchiga mashinalarni harakat vaqtida cho'kkан, ag'darilgan, ishdan chiqqan va shikastlangan izlash v.h.k.; DP-5V, VPXR, RVM-2 priborlari

yordamida radiatsion zararlangan texnikalarga maxsus ishlov berish, kimyoviy va muxandis razvedka olib borish;

shikastlangan mashinalarni evakuatsiya qilish vaqtida yong'inni alangalanishini oldini olish va o'chirish;

tiqilgan mashinani to'g'ridan-to'g'ri maksimal 196,2 kN (20 tonnna/kuch) kuchlanish bilan chiqarish;

ishga yaroqsiz mashinani transportda tashish holatiga keltirish;

12,0 tonnagacha bo'lган nosoz mashinani transportda tashish holatiga keltirish va shatakkal olib tashish;

16 tonnagacha bo'lган nosoz mashinani qumli yo'llarda va 22 tonnagacha bo'lган mashinani qattiq qoplamlari yo'llarda yarim ortilgan holatda transportda tashish;

yuk ko'tarish ishlarini manipulyator-kran qurilmasi ishlatgan holda bajarish;

Ural-5323, Ural-4320-31, Ural-4320, KAMAZ-6350, KAMAZ-5350, KAMAZ-4350, KAMAZ-43114, KAMAZ-43101, KAMAZ-4326, Zil-431410, Zil-433410, Zil-131N (131), GAZ-3307 (53A), GAZ-66-11 (66), UAZ-3741 (452A), UAZ-3151 (469) ushbu ko'p maqsadlarda foydalaniladigan avtomobilarni ko'chma xizmat ko'rsatish imkoniyatlardan (mustaqil o'z joyini o'zgartirishga) foydalanilgan holda shikastlanganlik darajasini tashxis qo'yish yo'li bilan tekshirish, nosozliklar aniqlangan texnikalarni sozlab uning ishchanligini tiklash;

yuqorida nomlari keltirilgan avtomobilarning ta'minlash tizimini yoqilg'i, moy va sovutish suyuqliklari bilan to'ldirish, shuningdek agregat va uzellarni moylash.



**5-rasm.** BREM-1 umumiy ko'rinishi

Shunday qilib, nosoz (shikastlangan) texnikalarni jangovar qo'llashga (mo'ljallanishi bo'yicha) shay holatga keltirishda qo'shninlarning tarkibiy qismidagi ta'mirlash-tiklash bo'linmalarida ta'mirlash ishlarini o'tkazish texnologik jarayonida REM-KL ustaxonasidan foydalanib yuqori natijalarga erishish kutilmoqda.

Qurol-aslaha va harbiy texnikalarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ustaxonasi bilan okrug bo'g'inidagi texnik ta'minot bo'linmalarini ta'minlash juda katta e'tiborga ega.

70-yillarning oxirida jangovar mashinalarga jang maydonida va marsh yurish vaqtida texnik yordam ko'rsatishni tashkillashtirish bo'yicha sobiq sovet harbiy mutaxassislari yangi turdag'i maxsus texnikani yaratish bo'yicha yagona xulosaga kelishdi. Jang maydonida vazifani bajarish vaqtida talofat ko'rgan texnikalarni xech qanday maxsus texnikalarni jalb qilmagan holda ta'mirlash ishlari bajarish uchun real jangovar harakatlarda ta'mirlash ishlarini bajarishni imkon pastligini inobatga olgan holda, turli hildagi asbob-uskunalar bilan jihozlangan mutloqo yangi turdag'i "Chig'iriqli" BREM-1 rusumli zirhlangan ta'mirlash-evakuatsiya mashinasini yaratildi.

Sobiq SSSR Mudofaa vazirligining zirhli tank bosh boshqarmasining buyurtmasiga asosan himoyalangan, yuqori o'tuvchan va harakatchan, shuningdek, majmuaviy maxsus jihozlangan mashinani ishlab chiqardi. Texnikaning asosiy vazifalari jang maydonidan talofat ko'rgan mashinalarni evakuatsiya qilib ShMYPga yetkazish, ta'mirlash ishlariga yordam berish, shuningdek,

dala sharoitida har xil turdag'i yuk ko'tarish ishlarini bajarishdan iborat. Ishlab chiqarilgan ko'p funksiyali mashina jangovar mashinalar parkini yordamchi texnikalar bilan to'ldirishni qisqartirdi va talofat ko'rgan zirhli texnikalarni ta'mirlash tizimidagi ishlarni soddallashtirdi.

Omsk transport mashina qurilish zavodida yaratilgan ta'mirlash-evakuatsiya mashinasiga OKB-174 deb nom berdi. Yaratilgan tank T-72 shassisidagi maxsus mashinani xar xil turdag'i ehtiyyot qismlar va jihozlar to'plami bilan jihozlandi.

Tank T-72 bazasida yaratilgan BREM-1 rusumli zirhlangan ta'mirlash-evakuatsiya mashina 1973 yilning martida Nijniy Tagil shahridagi poligonda sinovdan o'tkazildi. 1974-75 yillarda mashinani harbiy mutaxassislar tomonidan tekshirildi. Tekshiruv natijasiga ko'ra ushbu mashinani qurolli kuchlarga qabul qilishni taklif etishdi. 1975 yil 13 iyunda sobiq SSSR Mudofaa vazirining buyrug'i bilan «608-ob'ekt» dagi zirhlangan ta'mirlash-evakuatsiya mashina BREM-1 deb nom bilan qurolli kuchlarga qabul qilindi. Undan keyin yangi na'munadagi mashinalarni yaratish boshlandi.

Tank T-72 bazasida yaratilgan BREM-1 rusumli zirhli ta'mirlash-evakuatsiya mashinasining faqatgina kuchlanish bo'limi va yurish qismi saqlanib qolning bo'lib, shuningdek uning ayrim agregatlari almashtirilgan. Vazifasidan kelib aggregatlar joylashtirilgan va korpusning kompanovkasiga ham o'zgartirishlar kiritilgan. Uchala ekipaj a'zolarini yashovchanligini oshirish maqsadida korpusning old qismiga ishchi organi joylashtirildi. Mexanik-haydovchining ish joyi bo'limning markazida va sal orqasining o'ng tomonida mashina komandiri joylashgan. Takilajchi-ulagmch kerakli boshqaruv organ jamlanmasi bilan korpusning chap bortida komandirning orqasida joylashgan.

Barcha ekipaj a'zolari uchun alohida lyuklar mavjud. Undan tashqari ekipaj a'zolari uchun mexanik-haydovchining orqasida korpusning tag qismida bir dona evakuatsiya lyuk o'rnatilgan. Vaziyatni kuzatish uchun ekipaj a'zolarini lyuklariga optik priborlar o'rnatilgan. Mehanik-haydovchi kunduzi prizmali pribordan, qorong'u vaqtarda o'rtada joylashgan pribor o'rniiga TVNE-4PA tungi ko'rish priboriga almashtiriladi. Mashina komandiri kichik aylanuvchi minorada joylashgan bo'lib unda ikkita prizmali va kombinatsiyalangan TKN-3 (kunduzgi va tungi) pribor bilan jihozlangan. Takilajchi-ulagichning joylashgan joyi mashina komandiriga o'xshash faqat uning minorasi aylanuvchi mexanizm o'rnalilmaganligi bilan farq qiladi va TNP-160 to'rtta prizmali pribor bilan jihozlangan bo'lib unda tungi ko'rish pribori o'rnatilmagan.

Mashinaning ortqa qismida motor-transmissiya bo'limida kuchlanish qurilmasining agregatlari joylashgan. BREM-1 zirhli ta'mirlash-evakuatsiya mashinasiga asosiy tank bazasidagi 840 ot/kuchiga ega bo'lган V-84MS rusumli dizel dvigatelei bilan jihozlangan.

70-yillarning o'rtalariga kelib sobiq sovet armiyasiga tank T-72 bazasiga asoslangan holda BREM-1 rusumli zirhli ta'mirlash-evakuatsiya mashinasi kiritildi. Bu mashinaning qabul qilinishi shikastlangan texnikalarni evakuatsiya qilinishi va keyinchalik ta'mirlashga yuborilishni ososnlashtirdi. Bunday texnikaga nafaqat tankistlar, turli xildagi zirhli texnikalarni ekspluatatsiya qiluvchi boshqa turdag'i qo'shinlarda ham muxtojlik sezildi. Ushbu muxtojlik BREM-2 rusumli zirhli ta'mirlash-evakuatsiya mashinasini ishlab chiqarishga turki bo'ldi.

80-yillarning boshlarida sobiq sovet juda katta miqdordagi piyodalar jangovar mashinasini va yengil zirhlangan texnikalarni ishlab chiqara boshladи. Sababi katta masshtabli qurolli mojaralarda dushman bilan to'qnashuvllarda bevosita qo'llash, shaxsiy tarkibni jang maydoniga olib kirishi va o't bilan qo'llab quvvatlash uchun zarur edi. Lekin shu xarakatlarda shikastlanib safdan chiqqan texnikalarda ta'mirlash ishlarini bajarishda qiyinchiliklar kelib chiqib, maxsus texnikaga muxtojlik

sezildi. Ushbu dolzARB muammoni yechish uchun universal zirhli ta'mirlash-evakuatsiya mashinasi yo'q edi. BREM-1 rusumli zirhli ta'mirlash-evakuatsiya mashinani "joyida ishlash" bo'yicha tasnifidan kelib chiqib shunga o'xhash yangi mashinaga extiyoj sezildi.

1982 yilda Kiev shahridagi Mudofaa vazirligining Konstruktor-texnolog markaziga BMP-1 bazasida zirhli ta'mirlash-evakuatsiya mashinasi BREM ni ishlab chiqarish uchun buyruq olindi. BMP-1 shassisidagi mashina loyihasini soddalashtirdi, agregatlarni bir xil qilinishi uning ekspluatatsiya qilinishini orzonlashtirdi. O'sha vaqtarda yangi turdag'i BMP-2 texnikalarini ishlab chiqarish natijasida BMP-1dan foydalanishni yakunlash va kelgusida uni ishlab chiqarish qisqartirildi. Shunday qilib eski mashinani o'rniga yangi BREMni foydalanishni taklif etildi. O'sha tashkilotning o'zida ta'mirlash va modernizatsiya qilish jarayonida maxsus uskuna va jihozlarni o'rnatish rejalashtirildi.

Yangi loyihada yaratilgan zirhli ta'mirlash-evakuatsiya mashinasiga BREM-2 deb nom berildi. Ushbu yaratilgan zirhli ta'mirlash-evakuatsiya mashinasi tankchilar va motoo'qchilar qo'shinilarida bir-biriga mos ravishda foydalanildi.



**6-rasm.** BREM-2 umumiyo ko'rinishi orqa

BREM-2 dagi bir qator asosiy sifatlari BMP-1ning o'ziga xos xusuiyatlaridan olingan. BMP-1ning bazasining asosida zirhli ta'mirlash-evakuatsiya mashinasi ishlangan, shuningdek yangi to'plamdag'i asbob-uskunalar mashinaning ichki va tashqi tomonlariga o'rnatildi. Mashinaning kampanovkasiga ko'plab o'zgartirishlar kiritildi. Kuchlanish bo'limi o'sha tarzda korpusning old o'ng tomonida va chap tomonda ikkita ekipaj a'zosining ishchi joyi goldirildi. Mashinaning kampanovkasiga ko'plab o'zgartirishlar kiritildi. Kuchlanish bo'limi o'sha tarzda korpusning old o'ng tomonida va chap tomonda ikkita ekipaj a'zosining ishchi joyi goldirildi. Ularning ortida jangovar bo'lim o'rnda yana ikkita ekipaj a'zosining ishchi joyi goldirildi, shuningdek mashinaning desant bo'limiga maxsus yig'ma apparaturalar uchun joy ajratildi.

BREM-2 bazali mashinaning korpusi o'qdan himoyalanish uchun zirhlanganligi saqlab qolinib, xar tomonidan otilgan o'qotar qurollarning o'qlaridan ekipaj a'zolarini himoyalashga qodir. Mashinaning old tomonining himoyasi kuchaytirilgan.

BREM-2 bazali mashinasining motor-transmisiya bo'linmasida 300 ot/kuchiga ega UTD-20 rusumli dizel dvigatel o'rnatilgan. Ushbu kuchlanish qurilmasi 14 tonna og'irlikdagi mashinani solishtirma quvvatini 22 ot/kuchiniga va shasseda harakatlanishini 65 km/soatga yetkazadi. Guseunitsalarni o'rashi xisobiga suvli to'siqlarni kechib o'tish imkoniga ega va suvda xarakatlanishi 6-7 km/soatga yetkazadi.

BREM-2 bazali mashinaning yurish qismi va kuchlanish bo'linmasi BREM-1 mashinasidagi agregatlardan bir oz farq qiladi. Ishlab chiqarishni soddalashtirish va uning hususiyatini oshirish maqsadida 80-yillarda ishlab chiqarilgan BMP-2 texnikasining ayrim detallari o'rnatildi.

BREM-2 bazali mashinasining ekipaji to'rt kishidan iborat. Dvigatelning chap tomonida bir



**7-rasm.** BREM-2 umumiyo ko'rinishi old

biriga qarama-qarshi, mexanik-haydovchi (u xam yuk ko'tarish kranni operatori) va komandir. Bortning chap tomonida oldingi jangovar bo'limda elektr uskunalarining va chilangar-payvandlovchi mutaxassis joylashgan. Ba'zi bir ma'lumotlarga ko'ra chilangar ekipaj a'zosiga kirmaydi, uning vazifasini komandir yoki elektr uskunalari mutaxassisi bajaradi. Xar bir ekipaj uchun lyuklar va qopqoqlar o'rnatilgan. Komandir va mexanik-haydovchining lyuklari BMP-1 bazasidagi joyida o'z o'rniда qoldirilgan. Uchinchi ekipajning lyuki o'ng bortning sal ortiga o'rnatilgan.

Komandir lyukiga projektor va PKM pulemyot o'rnatilgan va ekipaj a'zolarini himoyasini ta'minlash uchun pulemyotga 1000 dona o'q-dori beriladi. Undan tashqari mashinani niqoblash maqsadida 6 dona tutun tarqatuvchi granata uloqtiruvchi qurilma o'rnatilagn bo'lib u tom qismida joylashtirilgan. Dushmanning zirhli texnikalarini yakson qilish uchun RPG-16 rusumli reaktiv granatomet va o'q-dorilari bilan butlangan.

Zirhli ta'mirlash-evakuatsiya mashinasining vazifalari quyidagilar:

shikastlangan yengil zirhlangan texnikalarga texnik yordam ko'rsatish;

texnikalarni botqoqlikdan chiqarish;

10-15 tonna og'irlilikdagi texnikalarni shatakka olib ShMYP gacha olib borish;

ta'mirlash ishlarini bajarish va og'ir yuklarni ko'tarish vazifalarini bajarish uchun maxsus jihozlar to'plami bilan butlangan.

150 metrli po'lat arqon bilan jihozlangan chig'iriq mavjud bo'lib u 6,5 tonnagacha yukni tortishga mo'ljallangan. Tortish kuchini oshirish uchun ikkita blok polispast mavjud, uning yordamida 19,5 tonnagacha og'irlilikdagi yukni tortish mumkin. Torosni yetkazishda korpusni tepe qismida tuynik bo'lib old qismida ikkita ro'lik mavjud.



Texnikalarni botqoqliklardan chiqarish uchun BREM-2 da yukni tortuvchi chig'iriq va buldozer-tishli pulug bilan jihozlangan. Ish boshlashidan oldin orqa pastki qismidagi sharnirni tushiradi. Pulug tishning asosiy vazifasi o'zining vazni og'irligidagi mashinalarni tortib chiqarish vaqtida mashinani barqarorligini ta'minlaydi. Undan tashqari buldozer-tishli pulug o'zi uchun okop qazish funksiyasiga ham ega. Xarakatlanish vaqtida u yuqoriga ko'tarib ikkita stopor bilan qotiriladi.

Mashinaning korpusi ustida haydovchi va

komandirning lyukiari va sururiuvchi kran mavjud. Elektr mexanikli uzatmali ko'taruvchi-kran 270° aylana oralig'idagi yuklash ishlarini bajarish imkoniyatiga ega. Shuningdek 1,5 tonna yukni ko'tarishi va qo'shimcha jihozlar o'rnatilib 7 tonnagach uzaytirish mumkin hamda dala sharoitida zirhli texnikalarni (BMP, BTR va yengil zirhlangna mashina)larni alohida agregatlarini almashtirish yo'li bilan ta'mirlash ishlarini bajaradi.



**9-rasm.** Harakat vaqtidagi ko'taruvchi  
kranning holati

Harakat vaqtida kran korpusga burchak ostida ko'yilib ilmog'i tarang qilib tortib qo'yiladi.

Mashinaning korpusini ustida maxsus yonlarga ochiluvchi 1,5 tonnali yuk platformasi mavjud bo'lib u ZEQ larini, xar xil asbob-uskunalarini, detallarni va uzellarni olib yurish imkoniyatiga ega.

Payvandlash ishini bajarish uchun VG-7500 rusumli generatori bo'lib u temir metallarini kesish va payvandlash uchun mo'ljallangan.

1985 yil komissiya tarkibida tekshiruvlardan o'tgandan keyin Qurolli Kuchlarning Quruqlikdagi Qo'shinlariga qabul qilinib, seriyali tartibda ishlab chiqarish boshlandi. Bu texnikani no'ldan ishlab chiqarish uchun juda katta mablag'ni tejab qolish uchun texnik konstrukturlar tomonidan BREM-2 mashinasini BMP-1 ning bazasini kapital ta'mirlash yo'li bilan ishlab chiqardi va uning korpusiga po'lat tishli surgich, chig'iriq va og'ir yuk ko'taruvchi kran o'rnatildi. Shuning evaziga Quruqlikdagi Qo'shinlar juda katta miqdorda yangi turdag'i zirhli ta'mirlash-evakuatsiya mashinasi BREM-2 qabul qildi. Qabul qilingan texnikaning kuchi bilan Quruqlikdagi Qo'shinlar dala sharoitida va jangovar vaziyatlarda texnikalarga to'liq texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash imkoniyatiga ega bo'lishdi.

Sobiq SSSR tarqalgandan keyin ushbu texnikani ishlab chiqarish imkoniyati pasaydi. Yangi zavodda ishlab chiqarilganlarini esa Indoneziya va Ukraina davlatlariga eksport qilindi.

Ta'mirlash-evakuatsiya mashinasi BREM-2 yaratilgandan so'ng texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini bajarish talablariga to'liq javob beradigan ikkita turi yaratildi. 1980 yillarning oxirida uncha katta o'zgarishlarsiz lekin jangovar og'irligi bo'yicha o'zgartirilgan BMP-3 texnikasi paydo bo'ldi. Keyinchalik qo'shinlarni ushbu BMP-3 turidagi texnikalarga sifatli texnik xizmat ko'rstaish va ta'mirlash ishlarini oshirish maqsadida BREM-L rusumli zirhli ta'mirlash-evakuatsiya mashinasi-yengil texnikasi bilan butlash maqsad ushbu rusumdag'i texnika yaratdi. Ushbu BREM-L rusumli zirhli ta'mirlash-evakuatsiya mashinasi-yengil texnikasini ishlab chiqarish boshlangandan so'ng BMP-1/2 va BREM-2 ta'mirlash-evakuatsiya mashinasini ishlab chiqarishdan butunlay voz kechildi. Lekin sobiq SSSR tarkibida bo'lgan davatlarda xozirgacha xam ushbu texnikaloardan foydalanimlib kelinmoqda.



#### **FOYDALANILGAN MANBALARNING RO'YXATI:**

1. [www.voenobr.ru/uchmaterial/](http://www.voenobr.ru/uchmaterial/) Бронетехника.
2. [www.pr-t.ru/catalog/](http://www.pr-t.ru/catalog/) Машины технической помощи и эвакуации. Средства обслуживания и ремонта.
3. [www.fishki.net/](http://www.fishki.net/) Подвижные средства технического обслуживания и ремонта. Часть-3.
4. [sptechnika.ru/](http://sptechnika.ru/) Машина технической помощи МТП-2.
5. [www.drive2.ru/c/](http://www.drive2.ru/c/) Средства обслуживания и ремонта.
6. По материалам сайтов:  
-